
“Farg’ona haqiqati” gazetasida chop etilgan maqola yuzasidan bildirish

“Farg’ona haqiqati” gazetasining joriy yil 8 fevraldagi 11-sonida “Ham tor ko’cha, ham xor ko’cha” sarlavhasi ostida Farg’ona shahar “Alisher Navoiy” mahalla fuqarolar yig’inlari Sohibqiron Temur va Oybek ko’chalarini bog’lab turadigan bir nechta ko’p qavatli uylar joylashgan ichki ko’chalar atrofida chiqindilar tashlanayotgani tanqid qilingan.

Mazkur holat yuzasidan shahar hokimligi tomonidan maxsus ishchi guruh tuzilib, ko’p qavatli uy-joylar atrofini toza tutish, maishiy chiqindilarni belgilanmagan joylarda qoldirmaslik bo’yicha aholi o’rtasida targ’ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda.

Maqolada ko’rsatilgan kamchiliklarni bartaraf etish, bunday holatlar boshqa takrorlanmasligi va oldini olish bo’yicha chora-tadbirlar belgilandi.

2020-02-20 18:59:06